

**“Smart bank” AJ  
Kuzatuv kengashining  
2024 yil 30 yanvardagi  
30-01/1-sonli yig‘ilish bayonnomasi  
bilan tasdiqlangan**

**“Smart bank” AJ  
Boshqaruvining  
2024 yil 29 yanvardagi  
29-01/1-sonli yig‘ilish qaroriga  
3-ilova**

Bank tomonidan ro‘yxatdan o‘tkazildi.

Ro‘yxat raqami: I-49

Sana: 31.01.2024 yil

Imzo

**“SMART BANK” AKSIYADORLIK JAMIYATINING  
INVESTITSIYA SIYOSATI**

**Toshkent – 2024 yil**

Mazkur “Smart bank” aksiyadorlik jamiyatining investitsiya siyosati (keyingi o‘rinlarda Siyosat deb yuritiladi) O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni va amaldagi boshqa qonunchilik hujjatlari hamda “Smart bank” aksiyadorlik jamiyati Ustaviga muvofiq ishlab chiqilgan.

### **1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Mazkur Siyosat “Smart bank” aksiyadorlik jamiyati (keyingi matnlarda Bank deb yuritiladi)ning investitsion faoliyatining maqsadlari va asosiy yo‘nalishlarini belgilaydi hamda mablag‘larni boshqa korxonalar ustav kapitaliga, qimmatli qog‘ozlariga va ko‘chmas mulkiga investitsiya qilish yo‘nalishlar va umumiy qoidalarini belgilashga qaratilgan.

2. Siyosatda quyidagi atamalar va tushunchalar qo‘llaniladi:

**koeffitsiyentlar tahlili** – turli moliyaviy hisobotlar moddalarining o‘zaro bog‘liqligi hamda ularning turli moddalari o‘zaro munosabatlarini o‘rganishdir;

**investitsiyalar** - investor tomonidan foyda olish maqsadida ijtimoiy soha, tadbirkorlik, ilmiy va boshqa faoliyat turlari obyektlariga tavakkalchiliklar asosida kiritiladigan moddiy va nomoddiy boyliklar hamda ularga bo‘lgan huquqlar, shu jumladan intellektual mulk obyektlariga bo‘lgan huquqlar, shuningdek reinvestitsiyalar;

**investor** - foyda olish maqsadida investitsiya faoliyati obyektlariga o‘zining mablag‘larini va (yoki) qarz mablag‘larini yoxud jalb qilingan boshqa investitsiya resurslarini investitsiya qilishni amalga oshiruvchi investitsiya faoliyati subyekti;

**investitsiya majburiyati** - belgilangan maqsadlarga erishish uchun investor tomonidan qabul qilinadigan majburiyat;

**investitsiya faoliyati** - investitsiya faoliyati subyektlarining investitsiyalarni amalga oshirish bilan bog‘liq harakatlari majmui;

**investitsiya faoliyati ishtirokchisi** - investitsiyalarning amalga oshirilishini buyurtmalarni bajaruvchi sifatida yoki investorning topshirig‘i asosida ta‘minlaydigan investitsiya faoliyati subyekti;

**reinvestitsiyalar** - investitsiyalardan olingan, tadbirkorlik faoliyati va boshqa faoliyat turlari obyektlariga kiritiladigan har qanday daromad, shu jumladan foyda, foizlar, dividendlar, royalti, litsenziya va vositachilik haqlari, texnik yordam, texnik xizmatlar uchun to‘lovlar va haqlarning boshqa turlari.

### **2-bob. Siyosatning maqsadi va strategiyasi**

3. Mazkur Siyosat Bankning investitsiya portfelini boshqarishga hamda to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarni amalga oshirishda qo‘llaniladigan strategiyani ishlab chiqishga yo‘naltirilgan bo‘lib, uning asosiy maqsadi mablag‘lardan samarali foydalangan holda diversifikatsiyalash va likvidlik shaklida saqlanishini, barqaror faoliyati hamda amalga oshirilayotgan operatsiyalarining daromadlilikini ta‘minlashdan iboratdir.

4. Siyosat Bankning aktiv amaliyotlarini diversifikatsiya qilish orqali investitsiya yo‘nalishlarini belgilab beradi.

5. Ushbu Siyosatning maqsadlaridan yana biri mablag‘larni xavfsiz investitsiya qilgan holda foyda olish.

6. Mazkur Siyosat Bankning qimmatli qog‘ozlar portfelini boshqarish va amalga oshiriladigan investitsiyalarining maqsadi hamda vazifalariga aniqlik kiritish hamda investitsiyalarni amalga oshirishga to‘g‘ri keladigan moliyaviy instrumentlar doirasini belgilash va shu orqali investitsiya portfelining sifat tarkibini yaxshilashga ko‘maklashadi.

### **3-bob. Investitsiya faoliyatining asosiy tamoyillari**

7. Bank moliyaviy barqarorlikni ta‘minlash maqsadida o‘z aktivlarini ishonchlilik, diversifikatsiyalash, qaytarishlilik, foydalilik va likvidlilik tamoyillari asosida qimmatli qog‘ozlarga investitsiya qiladi.

8. Bank qimmatli qog‘ozlar bozorida investitsiyalarni amalga oshirishda quyidagi asosiy tamoyillarga rioya qilishi lozim:

investitsiyalarni professional boshqarish;

manfaatlardagi ziddiyatlar to‘g‘risida ogohlantirish;

axborotlarning shaffofligini ta‘minlash.

9. Investitsiyalarni professional boshqarish Bank tomonidan quyidagi yo‘llar bilan ta‘minlanadi:

zarurat tug‘ilganda qimmatli qog‘ozlar investitsiya obyekti bo‘lishi mumkin bo‘lgan emitentning affillangan shaxsi hisoblanmagan investitsiya maslahatchilarini investitsiya jarayoniga va tashkilotning tegishli malakaga ega bo‘lgan (investitsiya aktivlarini ishonchli boshqaruvchi) mutaxassislarini investitsiya aktivlarini boshqarish jarayoniga jalb qilish;

qimmatli qog‘ozlar bozorida investitsiya faoliyatini tashkil qilish (investitsiyalash obyektlarini tahlil qilish, investitsiya qilinadigan mablag‘larni investitsiyalash obyektlari o‘rtasida o‘zaro taqsimlanish nisbatini aniqlash, daromadlilikni davriy baholash).

10. Manfaatlarda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan ziddiyatlarning oldini olish maqsadida Bank mansabdor shaxslari investitsiya qilish to‘g‘risidagi qaror qabul qiluvchi Kuzatuv kengashi tomonidan tegishli qaror qabul qilingunga qadar o‘zining investitsiya obyekti bilan affillanganligi to‘g‘risida axborot berishi kerak.

11. Bank axborotlarining shaffofligi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda axborotlarni oshkor etish orqali ta‘minlanadi.

12. Bank Boshqaruvi Bankning aksiyadorlari oldida har yili qimmatli qog‘ozlarga qilingan investitsiyalar to‘g‘risida hisobot beradi.

13. Bank xodimlari va boshqaruv organlari a‘zolari tomonidan xizmat doirasida foydalanadigan, bank siri hamda maxfiy axborotlardan foydalanishi qonunchilikda belgilangan tartibi amalga oshiriladi.

14. Bank tomonidan qimmatli qog'ozlar bilan bajarilgan operatsiyalar bo'yicha hujjatlarning saqlanishi qonunchilikka muvofiq amalga oshiriladi.

#### **4-bob. Investitsiyalarni amalga oshirish shakllari**

15. Investitsiyalarni amalga oshirishning quyidagi shakllari mavjud:  
yuridik shaxslarni tashkil etish yoki ularning ustav fondlarida ulushli ishtirok etish, shu jumladan, mol-mulk va aksiyalar olish;  
qimmatli qog'ozlarni, jumladan qarz majburiyatlarini sotib olish orqali;  
qonunchilikka zid bo'lmagan boshqa shakl va usullar orqali.

#### **5-bob. Bank mablag'laridan investitsiya qilinishi rejalashtirilgan qimmatli qog'ozlarning turlari, investitsiya muddatlari**

16. Mazkur Siyosatning talablari asosida qonunchilikda belgilangan barcha turdagi qimmatli qog'ozlarga Bank tomonidan investitsiyalar amalga oshirilishi hamda ular bilan operatsiyalar o'tkazilishi mumkin.

17. Bankning qimmatli qog'ozlarga investitsiyalari muddatlari qimmatli qog'ozlarning muomalaga chiqarish shartlari hamda qimmatli qog'ozlarni sotib olish bo'yicha tuzilgan shartnomalarda belgilanadi.

18. Bankning qimmatli qog'ozlarga investitsiyalari quyidagi turlarga bo'linadi:

O'zbekiston Respublikasi Hukumati va Iqtisodiy hamkorlik hamda rivojlanish hamjamiyatlari a'zolari bo'lmish mamlakatlar tomonidan muomalaga chiqarilgan qimmatli qog'ozlar;

xalqaro va xorijiy emitentlarning qimmatli qog'ozlari;

xorijiy kapital ishtirokida tashkil topgan banklar tomonidan muomalaga chiqarilgan qimmatli qog'ozlar;

O'zbekiston Respublikasida faoliyat ko'rsatayotgan aksiyadorlik jamiyatlarining aksiyalari va obligatsiyalari;

boshqa ko'rinishdagi qimmatli qog'ozlar.

#### **6-bob. Bankning qimmatli qog'ozlar bozorida investitsiyalarni amalga oshirish faoliyatiga nisbatan o'rnatilgan talablar**

19. Bank tomonidan qimmatli qog'ozlar bozorida investitsiyalarni amalga oshirishda quyidagilarni bajaradi:

qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risidagi qonunchilik va monopoliyaga qarshi qaratilgan qonun hujjatlari talablariga rioya qilish;

investitsiya tavakkalchiliklarini to'g'ri (adekvat) baholashni amalga oshirish va samarali investitsiya qarorlarini qabul qilish uchun zarur bo'lgan moliyaviy, texnik, axborot resurslari hamda malakali xodimlarning mavjudligini ta'minlash;

o'z mablag'larining va boshqa moliyaviy ko'rsatkichlarining yetarliligi hamda qonunchilikda o'rnatilgan majburiy meyorlarga muvofiqqligini ta'minlash;

o'z xodimlari malakasining qonunchilikda o'rnatilgan malakaviy talablarga muvofiqligini ta'minlash.

20. Bank o'z huquqlarini amalga oshirishda va majburiyatlarini bajarishda o'z aksiyadorlari, omonatchilari va mijozlarining manfaatlarini himoya qilishi lozim.

21. Qimmatli qog'ozlar bozorida Bank xodimlari tomonidan o'z faoliyatini amalga oshirishida ularga nisbatan mazkur Siyosatda ko'zda tutilmagan qo'shimcha talablarni Bankning boshqa ichki meyoriy hujjatlarida belgilanishi mumkin.

### **7-bob. Qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshiriladigan operatsiyalar ustidan monitoring yuritadigan axborot tizimiga qo'yiladigan talablar**

22. Bank qimmatli qog'ozlar bozori konyunkturasiidan kelib chiqib qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarni amalga oshiradi hamda doimiy ravishda qimmatli qog'ozlar bozorida o'zgarishlar va qimmatli qog'ozlar kotirovkalari, Bankning investitsiya portfelidagi qimmatli qog'ozlar hamda ularning emitentlari faoliyatidagi muhim daliliy ma'lumotlar ustidan monitoring olib boradi. Jumladan:

investitsiya kiritilgan jamiyatlarda har yili majburiy tashqi audit tekshiruvidan o'tkazilishini nazoratga olish hamda moliyaviy yil tugaganidan so'ng auditorlik xulosasini olish;

investitsiya kiritilgan jamiyatlarning moliyaviy holatini tahlil natijalari bo'yicha hisobot va takliflarni olish.

23. Bank qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshiriladigan operatsiyalar ustidan turli rasmiy manbalar, rasmiy axborot tizimlari orqali monitoring yuritadi. Jumladan, Kapital bozorini rivojlantirishga mas'ul tashkilotning rasmiy veb sahifasi.

### **8-bob. Ichki nazoratni amalga oshirish bo'yicha talablar**

24. Bankning turli tarkibiy tuzilmalari o'rtasida majburiyatlarning mutanosib taqsimlanishi, shuningdek suiiste'molchilikning oldini olish uchun Bank tomonidan ichki nazorat amalga oshiriladi. Mazkur ichki nazorat quyidagilarni o'z ichiga oladi:

qimmatli qog'ozlarni xarid qilish yoki sotishni rasmiylashtirish bo'yicha hujjatlarni qabul qiluvchi, qayta ishlovchi xodimlar buxgalteriya operatsiyalarini amalga oshirmasligi, pul mablag'larini qabul qilmasligi, buxgalteriya o'tkazmalarini taqqoslash yoxud tasdiqlash imkoniyatiga ega bo'lmasligi;

buxgalteriya operatsiyalarini tayyorlash va amalga oshirishga mas'ul bo'lgan shaxslar qimmatli qog'ozlarni xarid qilish yoki sotishni rasmiylashtirish bo'yicha hujjatlarni qabul qilmasliklari yoxud tasdiqlash maqsadida bitim natijalarini taqqoslash imkoniyatiga ega bo'lmasligi;

barcha operatsiyalarning hujjatlar bilan tasdiqlanishi hamda buxgalteriya yozuvlari va birlamchi hujjatlar bilan taqqoslanishi;

Bank investitsiya faoliyatini jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish sohasidagi qonunchilik hujjatlariga rioya qilgan holda amalga oshiradi.

### **9-bob. Bankning qimmatli qog'ozlar bozorida investitsiyalarni amalga oshirish faoliyatiga nisbatan o'rnatilgan cheklovlar**

25. Bank tomonidan emitentlar va ularning faoliyat sohalari bo'yicha aksiyalarni jamlashni chegaralash hamda investitsiyalar diversifikatsiyasini amalga oshirish umumiy qabul qilingan oqilona bank faoliyati amaliyotlariga muvofiq amalga oshiriladi.

26. Bankning qimmatli qog'ozlarga qo'yilmalarini xavfsizligi va ularning sifatini hamda qimmatli qog'ozlar emitenti bo'lgan korxonalarining moliyaviy ahvolini va boshqarish tajribasini baholash emitent ahvolini baholashning mazkur Siyosatda belgilangan mezonlari hamda faoliyatini tavsiflovchi tahlillarga asosan amalga oshiriladi.

### **10-bob. Qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarni amalga oshiradigan shaxslar uchun bitimlar bo'yicha qarorlar qabul qilish va cheklovlar o'rnatish vakolatlari**

27. Bank Kuzatuv kengashi tomonidan quyidagilar bo'yicha qaror qabul qilinadi:

shu'ba va tobe korxonalarini tashkil etish;

boshqa xo'jalik jamiyatlaridagi ishtiroki bilan bog'liq bitimlarni tuzish;

amaldagi qonunchilikda belgilangan vakolat doirasida korporativ obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlarni sotib olish (davlat qimmatli qog'ozlari hamda banklarning qarz qimmatli qog'ozlari bundan mustasno);

qimmatli qog'ozlar hamda ulushlarning bozor qiymatini belgilashni tashkil etish;

aksiyalar va boshqa xo'jalik jamiyatlaridagi ulushni sotish.

28. Bank qimmatli qog'ozlar bilan tijorat operatsiyalarini Investitsiya qo'mitasining ijobiy qaroriga asosan mavjud bo'sh resurslar doirasida amalga oshiradi.

29. Bankning barcha turdagi qimmatli qog'ozlarga bo'lgan investitsiyalari va operatsiyalari hamda tashqi bozordagi diling operatsiyalari bilan bog'liq masalalar Bankning Investitsiya qo'mitasida ko'rib chiqiladi, davlat qimmatli qog'ozlari bundan mustasno.

30. Bankning davlat qimmatli qog'ozlari bilan bitimlari Bankning Likvidlilikni boshqarish qo'mitasi qaroriga asosan amalga oshiriladi. Agarda emitent tijorat banki bo'lsa uning moliyaviy ahvoli tahlili asosida amalga oshiriladi.

31. Aksiyadorlik jamiyatlarining qimmatli qog'ozlarini sotib olish haqidagi

takliflardan kelib chiqqan holda Bank:

a)aksiyadorlik jamiyatidan quyidagi birlamchi hujjatlarni talab qiladi:

aksiyadorlik jamiyatining Ustavi;

moliyaviy hisobotlar;

audit xulosasi;

aksiyalar emissiyasining risolasi (agar aksiyalar sotib olinsa), depozit sertifikatlarni muomalaga chiqarish, ularning muomala va soʻndirilish shartlari (agar depozit sertifikatlari sotib olinsa).

b)emitentning taklif kiritilgan sanaga va undan avvalgi yildagi moliyaviy ahvoli tahlilini amalga oshiradi hamda tahlil asosida qimmatli qogʻozlarni sotib olish yoki olmaslik toʻgʻrisida taklif tayyorlaydi.

32. Qimmatli qogʻozlar bilan yirik bitimlarni amalga oshirilganligi toʻgʻrisidagi maʼlumot ommaviy axborot vositalarida qonunchilikda belgilangan tartibda chop etib boriladi.

### **11-bob. Tijorat operatsiyalari**

33. Qimmatli qogʻozlar bilan amalga oshiriladigan tijorat operatsiyalariga quyidagilar kiradi:

qimmatli qogʻozlarni belgilangan qiymatidan past bahoda, belgilangan qiymati boʻyicha yoki undan yuqori bahoda sotib olish hamda ularni muayyan vaqt oʻtganidan soʻng boshlangʻich xarid narxidan yuqoriroq bahoda sotish;

“Repo” operatsiyalari;

anderrayting.

34. “Repo” operatsiyalari Bank tomonidan Oʻzbekiston Respublikasidagi qimmatli qogʻozlar bozorining professional ishtirokchilari va yuridik shaxs boʻlgan rezidentlar bilan amalga oshiriladi. “Repo” operatsiyalari bir yildan ortiq boʻlmagan muddatga tuziladi.

35. Shartnoma tuzayotgan tomonlarning oʻz qimmatli qogʻozlari “Repo” operatsiyalarining obyekti boʻla olmaydi.

36. Oʻzbekiston Respublikasining amaldagi qonunlariga muvofiq emitentning qimmatli qogʻozlari boʻyicha anderrayting xizmatlari (toʻliq emissiya hajmini joylashtirilishi hamda emissiyaning joylashtirilmagan qismini Bank balansiga sotib olish kafolati) yoki toʻliqsiz anderrayting (obligatsiyalar emissiyasi joylashtirilayotganda kafolatli joylashtirishsiz brokerlik xizmatlarini koʻrsatish) shartlari bilan taqdim etilishi mumkin. Xizmatlar koʻrsatilishining shartlari anderrayting xizmatini koʻrsatish toʻgʻrisidagi shartnomada qayd etiladi.

### **12-bob. Qimmatli qogʻozlar bozorida investitsiya vositachisi, investitsiya aktivlarini boshqaruvchisiva investitsiya konsultanti faoliyati**

37. Bankning investitsiya aktivlari yanada samarali boshqarilishini taʼminlash uchun Bank oʻz investitsiya aktivlarini shu maqsadlarda tashkil etilgan oʻzining

korxonalari yo'nalishiga qarab boshqaruviga topshirish, ustav fondini shakllantirish uchun kiritish hamda to'g'ridan-to'g'ri yoki lizing asosida sotishni belgilangan tartibda amalga oshirishi mumkin.

### **13-bob. Qimmatli qog'ozlar dilingi**

38. Bank xorijiy banklarda ochilgan vakillik hisobvaraqlari tizimi orqali o'z hisobidan va investorlarning mablag'lari hisobiga qimmatli qog'ozlar hamda ularning hosilalari bilan tashqi bozorda diling operatsiyalarining quyidagi turlarini shartnomaviy asosda amalga oshirishi mumkin:

davlat va davlat korxonalari qimmatli qog'ozlarining oldi-sotdisi;  
xalqaro qimmatli qog'ozlar oldi-sotdisi;  
korporativ qimmatli qog'ozlar oldi-sotdisi;  
hosilaviy qimmatli qog'ozlar va surrogatlar oldi-sotdisi;  
pul mablag'larini xorijiy yuridik shaxslarga trust boshqaruviga berish;  
xorijiy qimmatli qog'ozlarning qonunchilikka zid bo'lmagan boshqa oldi-sotdisi.

39. Diling operatsiyalari Bankning topshiriq-shartnomasi yoki boshqa turdagi topshiriqlari hamda kelishuvlari asosida amalga oshiriladi.

### **14-bob. Investitsiyalar diversifikatsiyasini amalga oshirish usullari hamda emitentning ahvolini baholash mezonlari**

40. Bank investitsiyalarning diversifikatsiyasini emitent va ularning faoliyat tarmoqlari bo'yicha aksiyalar to'planuvini chegaralash, qimmatli qog'ozlarga qilingan qo'yilmalarning xavfsizligini hamda ularning sifatini baholash, qimmatli qog'ozlar emitentlarining moliyaviy holatini va boshqarish tajribasini baholash usullari orqali amalga oshiradi.

41. Emitent va ularning faoliyat tarmoqlari bo'yicha aksiyalar to'planuvining umumiy hajmi investitsiya portfeli umumiy hajmining 20 foizidan oshmasligi tavsiya etiladi.

42. Bankning qimmatli qog'ozlarga qilingan qo'yilmalarining xavfsizligini va ularning sifatini baholashni ta'minlash maqsadida Bankning so'ndirish muddatigacha saqlanadigan qimmatli qog'ozlariga investitsiyalari hajmida muddati o'tgan investitsiyalarning salmog'i 5 foizdan oshib ketsa, unda muddati o'tib ketgan investitsiyalar hajmi kamaygunga qadar Bankda qimmatli qog'ozlarga investitsiyalar amalga oshirilishi vaqtincha to'xtatilishi mumkin.

### **15-bob. Qimmatli qog'ozlar emitentlarining moliyaviy holatini va boshqarish tajribasini baholash**

43. Qimmatli qog'ozlar emitentlarining moliyaviy holatini va boshqarish tajribasini baholash korxonalar boshqaruvini amalga oshirish, emitentning ahvolini baholash mezonlari hamda uning faoliyatini tavsiflovchi hisob-kitob



koefitsiyentlarini aniqlash orqali amalga oshiriladi.

44. Bankning ulushi bo'lgan korxonalar aksiyadorlari (ishtirokchilari)ning umumiy hamda Bank Kuzatuv kengashlari yig'ilishlarida Bank tarafidan tayyorlangan ishonchli vakil ishtirok etadi.

45. Bank ulushi bo'lgan korxonalarining moliyaviy xo'jalik faoliyati natijalari haqida to'liq va aniq ma'lumotlarni olish hamda shu tariqa korxonaning moliyaviy ahvolini aniqlash maqsadida moliyaviy tahlil o'tkaziladi.

46. Bank ulushi bo'lgan korxonalarining asosiy faoliyati yuzasidan monitoringni amalga oshiradi.

47. Bank tomonidan o'tkaziladigan moliyaviy tahlil korxonaning ko'rsatkichlarini va ishlab chiqarish xususiyatlarini yaxshiroq tushunish, ishlab chiqarish faoliyati samaradorligini baholash imkonini beruvchi moliyaviy muammolarini o'rganish hamda hal etishni ko'zda tutadi.

### **16-bob. Emitentning holatini baholash mezonlari va faoliyatini tavsiflovchi hisob-kitob koefitsiyentlari**

48. Emitentning moliyaviy ahvoli va boshqaruv menejmenti tahlilini amalga oshirishda uning buxgalteriya balansi, xarajatlar hamda daromadlar hisoboti, ustav, ta'sis hujjatlari, qimmatli qog'ozlar emissiyasining risolalari, biznes-reja va auditorlik xulosasi asos qilib olinadi. Ushbu maqsadda emitentning oxirgi 3-5 yil davomidagi moliyaviy va iqtisodiy ahvolidan tahlili amalga oshiriladi. Mazkur tahlil quyidagi ko'rsatkichlarning hisob-kitobi va baholanishiga asoslanadi:

olingan foyda;

to'langan dividendlar;

qimmatli qog'ozning bozor narxi;

emitentni bozorda tutgan o'rni;

aktivlar va passivlar;

o'z kapitaliga to'g'ri keladigan foyda meyori;

49. Investitsiyalar quyidagi manbalar hisobiga amalga oshiriladi:

o'z kapitali (mablag'lari);

qarz kapitali (mablag'lari).

50. Aksiyadorlik jamiyati xo'jalik-moliyaviy faoliyatining tahlili quyidagi koefitsiyentlar baholanishi va hisob-kitobini o'z ichiga oladi (banklar bundan mustasno):

foyda va aktivlar nisbati (ROA);

foyda va aksiyadorlik kapitali nisbati (ROE);

bir aksiyaga to'g'ri keladigan sof foyda (EPS);

aksiyaning qadr qiymati (R/YE);

moliyaviy mustaqillik koefitsiyenti (MMK);

mutlaq likvidlilik koefitsiyenti (MLK);

qoplash koefitsiyenti (KPO);

o‘z kapitalining harakatlanish koeffitsiyenti (KMN);  
o‘z va jalb qilingan mablag‘lar nisbati koeffitsiyenti (KO‘Z);  
kreditorlik qarzlarning kunlik aylanuvchanligi (AKQ);  
debitorlik qarzlarning kunlik aylanuvchanligi (ADQ).

51. Bank tomonidan sotib olingan qimmatli qog‘ozlar emitentlari faoliyati ustidan monitoring o‘rnatiladi.

Bank tomonidan har chorakda ushbu korxonalar bo‘yicha buxgalteriya balansi hamda moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotlar asosida moliyaviy tahlil amalga oshiriladi va yuqorida ko‘rsatilgan koeffitsiyentlar hisoblanadi va xulosasi qilinadi.

### **17-bob. Qimmatli qog‘ozlarga investitsiyalarning tasnifi va xavf-xatarlarni baholash**

52. Qimmatli qog‘ozlarga investitsiyalarni amalga oshirishda Bank ehtimolli yo‘qotishlarni hisobga olgan holda zaxiralar tashkil etadi.

Qimmatli qog‘ozlarga investitsiyalarni amalga oshirishda xavf-xatar turlarini aniqlash va ularni baholash ishlari har chorakda kamida bir marotaba amalga oshiriladi hamda emitentning moliyaviy ahvoli va Bankning shu investitsiyadan olayotgan foydasini, shuningdek Bank kontragenti bilan shartnoma shartlari bajarilishini inobatga olgan holda bir xavf-xatar turidan ikkinchi turiga o‘tkazishni ko‘zda tutadi.

53. Investitsiya qo‘yilmalarining tasnifi bo‘yicha “umidsiz” deb topilgan investitsiyalarni balansdan tashqari hisobiga chiqarilishi Bankning tegishli tarkibiy tuzilmalari (G‘aznachilik va Yuridik boshqarmalari) xulosalariga asosan Bankning Investitsiya qo‘mitasi va Bank Boshqaruvining qaroriga asosan hamda Bankning Kuzatuv kengashini xabardor qilgan holda amalga oshiriladi.

54. Emitentning moliyaviy ahvoli o‘rganib chiqilganidan so‘ng zaxiralar tashkil qilishni dastlabki hisob-kitobi tuziladi.

Dastlabki hisob–kitob asosida zaxira yaratilishi Bankning Investitsiya qo‘mitasi tomonidan ma‘qullanganidan so‘ng tegishli buxgalteriya o‘tkazmalari amalga oshiriladi.

### **18-bob. Hisob va nazorat**

55. Bank tomonidan qimmatli qog‘ozlar portfeli har chorakda to‘liq tahlil qilinadi va hisobot tayyorlanadi. Hisobot quyidagi ma‘lumotlarni o‘z ichiga olishi lozim:

qimmatli qog‘ozlar portfelining umumiy tahlili;  
qimmatli qog‘ozlarning turlari bo‘yicha ma‘lumotlar;  
qimmatli qog‘ozlarning daromadliligi bo‘yicha ma‘lumotlar;  
qimmatli qog‘ozlar emitentlari va bankning ulushi mavjud bo‘lgan jamiyatlar to‘g‘risida ma‘lumotlar;  
xulosa va takliflar.

56. Hisobot Bankning Investitsiya qo‘mitasi yig‘ilishida ko‘rib chiqiladi va tegishli qaror qabul qilinadi.

### **19-bob. Yakuniy qoidalar**

57. Bankning tegishli rahbar va xodimlari tomonidan mazkur Siyosatning asosiy yo‘nalishlariga to‘liq rioya qilinmagan taqdirda ularga nisbatan amaldagi tartib-qoidalarga asosan intizomiy choralar o‘rnatilgan tartibda qo‘llaniladi.

58. Mazkur Siyosatga kiritiladigan o‘zgartirish va qo‘shimchalar Bank Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

59. Mazkur Siyosat bilan tartibga solinmagan masalalar O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.